Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
Yuldashev Elmurod Abdujalil o'g'li	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана .....	1116
Икромова Ханифа Одиловна	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
Kamalova Jamila	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarning huquqiy maqomi va ularni isloq qilishning istiqbollari....	1125
Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi .....	1131
Ne'matov Oybek Ismatullayevich	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития .....	1136
Туйчиев Комилжон Лазизович	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati .....	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish .....	1146
Umarov Abdulquddus Abdilqatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах .....	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities ....	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida) .....	1168
Kolmatov Sanjarbek Xojimamatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishing asosiy ko'rsatkichlari.....	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choraları .....	1181
Xamraulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari .....	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati.....	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budget mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi .....	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari .....	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами .....	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar .....	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'llim sifatini ta'minlash oliv ta'llim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili.....	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish.....	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishing manbalari va yo'llari.....	1232
Raxmanov Ilhom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане .....	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике .....	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries .....	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari .....	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production .....	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari.....	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari.....	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiropi va ahamiyati.....	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari .....	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi.....	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	1286
Mamatqulov Omonulla Mamayusupov	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами.....	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash .....	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

**Xudayberganova Zarofat Zaxidovna**

PhD, Toshkent moliya instituti “Bank hisobi va audit” kafedrasи katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada tijorat banklari tomonidan masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolar aniqlangan va ularni hal qilishga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Masofaviy bank xizmatlari, mobil-banking, supermarket-banking, moliyaviy savodxonligi, internet-banking, internet, onlayn-bank, virtual ofis, kaftingizdag'i bank.

**Abstract:** The article identifies current problems related to the organizational and economic basis of providing remote banking services by commercial banks and develops scientific proposals aimed at solving them.

**Key words:** Remote banking, mobile banking, supermarket banking, financial literacy, internet banking, internet, online banking, virtual office, bank in the palm of your hand.

**Аннотация:** В статье обозначены актуальные проблемы, связанные с организационно-экономическими основами предоставления дистанционных банковских услуг коммерческими банками, и разработаны научные предложения, направленные на их решение.

**Ключевые слова:** Удаленный банкинг, мобильный банкинг, банкинг в супермаркете, финансовая грамотность, интернет-банкинг, интернет, онлайн-банкинг, виртуальный офис, банк на ладони.

## DOLZARBLIGI

Jahonda tijorat banklari tomonidan masofaviy xizmatlar ko'rsatishni rivojlantirish hamda yangi zamonaliviy bank xizmatlarini joriy qilish va ularning sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy izlanishlarga e'tibor qaratilmoqda. Tijorat banklari masofaviy bank xizmatlarini kengaytirish, banklar tomonidan masofaviy xizmatlarni mijozlarga yetkazish madaniyatini oshirish aholi keng qatlaming bankka bo'lgan ishonchini oshirish, banklar tomonidan yirik mijozlarni jalb qilish, ularning talab va takliflarini e'tiborga olgan holda yangi masofaviy xizmat turlarini taklif etish, mijozlarning fikrini doimiy e'tiborga olgan holda xizmat ko'rsatish masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

O'zbekistonda bank-moliya tizimida olib borilayotgan tub islohotlarda tijorat banklari faoliyatini rivojlanishga, xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini oshirishga e'tibor qaratilmoqda. Respublikada “yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish va obligatsiyalar chiqarish orqali, bank xizmatlari ko'lamenti yanada kengaytirish, ilg'or axborot texnologiyalari asosida bank tizimini rivojlanish”<sup>[1]</sup> vazifasi belgilangan. Mazkur vazifa ijrosini ta'minlashda tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlanishish borasidagi imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslab berish, banklar tomonidan masofaviy xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq mezonlar bank strategiyasida o'z ifodasini topmaganligi, banklar xizmat turlari hamda sifatida jiddiy o'zgarishlar yuz berayotganligini, chet el banklari bilan o'zaro hamkorlik aloqalari o'rnatalganligini hamda xorij tajribalarini O'zbekistonda ijobiy qo'llashga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Banklar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlari nazariyasi tarixi qator bosqichlarni bosib o'tgan. Bank xizmatlari nazariyasi rivojlanishini boshlang'ich bosqichida X. Duglas<sup>[2]</sup> va G. Brayanning ilmiy ishlari banklar xizmati bozori hamda uning bank xizmatlari segmentini o'rganishga bag'ishlangan. Ikkinci bosqichda, mam-lakatlarning iqtisodiyot tizimlari faoliyatining xususiyatlarini hamda boshqa omillarning bank xizmatlari bozoriga ta'sirini tadqiq etishga bag'ishlangan F. Derek<sup>[3]</sup> O. Donnel, Ye. Ballarin ilmiy ishlarida aks etadi. Keyingi



3-bosqichda “Moliyaviy supermarket” va “moliyaviy butik” g’oyalari bo‘yicha fikrlar ilgari surilgan.Bank xizmatlari bozorida mavjud ko‘rsatilayotgan elektron xizmatlar keng tarqalgan bo‘lib, banklarning birlashish va singib ketish holatlari ko‘paydi. Bu borada D. Jentle, J. Sinki<sup>[4]</sup>, P. Rouz ilmiy ishlarni alohida ta’kidlab o‘tish mumkin.

Tijorat banklarining masofaviy xizmatlari bo‘yicha biz qator MDH davlatlari olimlarining ham qarashlarini o‘rganib chiqishga harakat qildik. Albatta, bu sohada rossiyalik olimlarning asarlarida turlicha yondashuvlarni ko‘rishimiz mumkin. Rossiyalik iqtisodchi olimlar tijorat banklarining masofaviy xizmatlari to‘g’risida ko‘pchilik bildiradigan fikr atrofida mulohazalar bildirishini ko‘rishimiz mumkin. Iqtisodchi olim I. I. Biychkova “tijorat banklarining masofaviy xizmatlarini aksariyat hollarda mijozning bankga bormasdan kompyuter texnologiyalari va telefon tarmog‘i orqali topshirig‘iga asosan amalga oshirilishi”,<sup>[5]</sup> deb qaraydi. O.I. Lavrushin “banklarning masofaviy xizmatlari bu bankning o‘z mijozlari (jismoniy va yuridik shaxslar)ga turli bank operatsiyalariga masofadan turib ruxsat berish bo‘yicha kompleks xizmatlaridir”<sup>[6]</sup> degan ta’rif beradi. Shuningdek, O. I. Lavrushinning fikricha, “bank operatsiyalari bank funksiyalarining amaliyotda amalga oshirilishi bo‘lsa, bank xizmatlari esa bir yoki bir necha operatsiyalarning bank mijoji topshirig‘iga asosan va ma‘lum to‘lov evaziga amalga oshirilishini ko‘zda tutadi degan qarashni o‘rtaga suradi”<sup>[7]</sup>. Albatta, tijorat banklarining masofaviy xizmatlari o‘zining qo‘llanilishi va bajarilishi jihatdan masofadan amalga oshiriladigan xizmatdir. Ammo prof. O. I. Lavrushinning yuqorida keltirib o‘tgan fikrlari bizni bank operatsiyalari, bank xizmatlari va mahsulotlari to‘g’risida qisqacha bo‘lsa-da, fikrimizni bayon qilishga undaydi.

Rossiyalik olimlar A. M. Tavasiyev, T. Yu. Mazurina, V. B. Bychkovlarning fikricha, “bank xizmatlari bank operatsiyalariga qo‘srimcha hisoblanib ularga bank operatsiyalarining qo‘srimcha bir turi sifatida qarash mumkin. Ushbu olimlarning fikri bo‘yicha bank xizmatlari va bank operatsiyalari o‘rtasida farq mavjud emasdek tuyuladi. Lekin bilamizki, bank faoliyati mijozlar va ularning talablarini qondirish bilan bog‘liq. Shuning uchun banklar operatsiyalarni amalga oshirish uchun mijozlarga qanday va qaysi turdagagi xizmatlar ko‘rsatishi mumkinligini belgilab olishi, ularni mijozlarga yetkazishi lozim”<sup>[8]</sup>.

E. P. Jarkovskaya “...bank masofaviy xizmatlari bank ofisida aynan bank xodimi va mijoz ishtirokida emas balki uyda, ish joyida, umuman mijozga qulay bo‘lgan joyda xizmat ko‘rsatishdir”<sup>[9]</sup> degan ta’rifni kelтирди. A. S. Goncharukning “Chakana bank xizmatlari – bu aholiga tijorat bilan bog‘liq bo‘lmagan shaxsiy, oilaviy ehtiyojlarini qondirish uchun standartlashtirilgan bank mahsulotlariga asoslangan xizmatdir”<sup>[10]</sup>.

Mahalliy olimlarimizdan prof. Sh. Z. Abdullayevaning<sup>[11]</sup> masofaviy bank xizmatlari to‘g’risidagi fikrlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ular axborot texnologiyalarining rivojlanishi internetda moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish imkoniyatini kengaytirayotganligi, ilg‘or firmalar va tijorat banklari bugungi kunda bu imkoniyatdan foydalangan holda mijozlarga masofadan turib xizmat ko‘rsatish, elektron pullar hisobini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘layotganligiga, mamlakatimiz tijorat banklarida bank hisobvaraqlarini masofadan turib boshqarishni rivojlanitish kunning muhim masalalaridan biri ekanligiga e’tibor qaratgan. Tijorat banklarining masofaviy xizmatlari bo‘yicha o‘z tadqiqotlarini olib borgan mahalliy olimlarimizdan yana biri Z. T. Mamadiyarovning fikricha, “...bank tizimida masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishi, birinchidan, odamlar hayotidagi o‘zgarishlar, yangi axborot texnologiyalarning joriy etilishi, ikkinchidan, bank operatsiyalarning avtomatlashtirilgani bilan bog‘liq”<sup>[12]</sup>. X. Xudoyerova<sup>[13]</sup> “bank chakana xizmatlari bozorini takomillashtirishga qaratilgan strategik maqsadga erishishda, chakana bank xizmatlarini yetkazib berish jarayonini bir standartga solish asosida zamonaviy, innovation “online” xizmat turlarini joriy etish orqali, bank chakana xizmatlari bozorini yanada takomillashtirish hamda bank mijozlari talabini qondirish” taklifini ilgari surish orqali tijorat banklarining masofaviy xizmatlarini yanada rivojlantirish muhim ahamiyatga ega ekanligiga urg‘u bergenligini ko‘rishimiz mumkin.

Shuningdek, bevosita bank xizmatlaridan mijozlarning mammunligi bank va mijoz uchun birdek zarur hamda ahamiyatli ekanligi to‘g’risida fikr yuritgan tadqiqotchi A. Rahimov<sup>[14]</sup> mijozlarning bank xizmatlaridan mammunlik darajasini aniq, to‘liq va tezkor baholash nafaqat banklar uchun xizmatlar sifatini oshirishi, balki, mijozlar uchun qulay bankni tanlay olish imkoniyatlarini kengaytira olishi bilan ham dolzarb masalalardan hisoblanishi to‘g’risida to‘xtalib o‘tgan.

## O‘TKAZILGAN TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mijozlar tomonidan banklarni tanlab olishda asosiy omillar: bank xizmatlari xilma-xilligi, xizmatlar narxi (ta’riflar, vosita haqi) va kredit resurslari uchun foiz stavkalari e’tiborga olinadi. Ko‘rsatilayotgan xizmatlar uchun komissiyalar va foiz stavkalari miqdori o‘zgarishida daromadlarning birdan kamayishi xatarini pasaytirish maqsadida banklar moliya bozorida holatni doimo tahlil qilib borishi va ko‘rsatilayotgan xizmatlar tarif stavkalarini o‘zgartirish bo‘yicha choralar ko‘rishi kerak.

Mijozning bankka nisbatan munosabatini, bank bilan o‘zaro aloqa o‘rnatishidan maqsadini ifodalaydigan omillar quyidagilardan iborat:

1. Mijozlarning ehtiyoji (qiziqlishi). Mijoz qaysi bank muassasasining ishonchliliginibaholashi muhim omillardan biri sanaladi.



2. Bank imiji. Bunda bankning tashqi ko'rinishi, zamonaviy tashkiliy texnika va uskunalarga egaligi, xodimlarining tashqi ko'rinishi, bankdagi axborot materiallari (buklet, prospektlar)ning jozibadorligi, tovarlarni taqdim etish uslubining qulayligi va zamonaviyligi juda muhim. Bank imiji mijozlar fikriga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish borasidagi bir qator ilmiy ishlarni o'rganish natijasida biz tomonidan masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning "mijoz fikri" mexanizmi ishlab chiqildi.

Masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning "mijoz fikri" mexanizmini ishlab chiqishda birinchi navbatda, mazkur jarayonni bosqichlarga ajratib olgan holda e'tibor qaratish lozim deb topdik. Bunda, uchta bosqich asosida mexanizm ishlashini ko'rshimiz mumkin bo'ladi.



**1-rasm:** Masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning "mijoz fikri" mexanizmi<sup>[15]</sup>


Bank amaliyotida yuqori samaradorlikka erishishning muhim omillaridan biri yangi salohiyatlari mijozlarni ko'proq jalg etish sanaladi. Bunda, shuningdek, mijozlarga sifatli bank xizmati ko'rsatish orqali ularning ishonchini mustahkamlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mavjud farqlarga qaramay, mijoz-bank va internet-bank tizimlariga asoslangan masofadan bank xizmati ko'rsatish mijozlarga xizmat ko'rsatishning an'anaviy bank usullari oldida o'xshash afzallikkлага ega, ya'hi:

- kompyuter bor bo'lgan va internet global tarmog'iga kirish imkonini bo'lgan har qanday joydan turib, mijoz o'z hisobvaraqlaridan foydalanishi hamda transaksiyalarni amalga oshirishi mumkin;
- servisdan haftasiga 7 kun, sutkasiga 24 soat mobaynida foydalansa bo'ladi;
- transaksiyalar darhol bajariladi va tasdiqlanadi – ma'lumotlar ishlash vaqtini bankomatda ma'lumotlar ishlash vaqtini bilan bir xil;
- amalga oshiriladigan operatsiyalar doirasi ancha keng: hisobvaraqlar bo'yicha mablag'lar harakatini nazorat qilishdan tortib, ipoteka kreditiga buyurtma berishgacha operatsiyalarni bajarish mumkin.

Shuningdek, har bir tijorat banki uchun dastlab mijozning moliyaviy savodxonlik darajasi ham muhim hisoblanadi. Chunki banklar tomonidan ko'rsatilayotgan masofaviy xizmatlar xususida mijozlarda yetarlicha ko'nkmalar mavjud bo'lmasa bevosita bankka murojaatlar soni ortishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida bank xodimlarining vaqtini shu murojaatlar bilan ishlash uchun sarflashlariga to'g'ri keladi. Har bir tijorat banki albatta, mijoz uchun kurashadi. Ya'ni mijozlar sonini orttirishga harakat qilib boradi. Bu borada tijorat banklari turli xildagi marketing yo'nalishlaridan foydalanadi. Tijorat banklari nafaqat mijozlar sonini orttirishga, shu bilan bir qatorda ko'rsatilayotgan xizmatlari ko'lami va sifatini ham oshirishga parallel ravishda harakat qilishadi. Shu o'rinda qayd etib o'tish joizki, biz tomonimizdan ishlab chiqilgan tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlari sifatini oshirish va onlayn kreditlarning o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlashga xizmat qiladigan "moliyaviy savodxonlik markazlari"ni tashkil etish taklifi amaliyotga joriy etilishi natijasida ATB "O'zsanoatqurilishbank"ning




mijozlari sonini ortishiga olib keldi. Bu esa o‘z navbatida bankning masofaviy xizmatlarining ko‘lami va sifatini ortishiga xizmat qildi.



2-rasm: Moliyaviy savodxonlik markazlarining asosiy faoliyat yo‘nalishlari<sup>[16]</sup>

Moliyaviy savodxonlik markazlarining asosiy faoliyat yo‘nalishlari sifatida tijorat banklari tomonidan birinchi marta bankka tashrif buyurgan aholi va tadbirkorlarga moliyaviy savodxonlik, ya’ni bank bilan bo‘ladigan iqtisodiy munosabatlarni berishni tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish, bu borada aniq taktika va strategiya ishlab chiqish, taktika va strategiyada belgilangan vazifalarning ijrosi yuzasidan doimiy nazoratni yo‘lga qo‘yish, har bir mijozga alohida yondashuv asosida xizmat ko‘rsatish, mijozning moliyaviy maslahatlardan keyingi holatdagi natija va erishgan yutuqlarini muhokama qilib borish masalalariga e’tibor qaratish lozim.

Kelajakda respublikamiz bank tizimi yanada taraqqiy ettirishi lozim bo‘lgan yo‘nalish – bu Mobil-banking bank kartalari yoki hisob raqamlarini cho‘ntak ixcham kompyuterlari, kommunikatorlar va smartfonlar orqali onlayn tizimida boshqarish hisoblanadi. Bu barcha turdagи moliyaviy hujjatlar bilan ishlash imkonini beradi. Shiflash mexanizmi hamda elektron raqamli imzo (ERI)ni o‘z ichiga olgan holda jamoa bo‘lib ishlash imkoniyatini ham yaratadi.



3-rasm: Elektron bankingning turlari<sup>[17]</sup>

Mobilbanking “Kaftingizdagi bank” konsepsiyasini amalga oshirgan holda tunu-kun ishlaydi, tezkor va mijozlarning elektron banking xizmatlari spektridan to‘liq funksiyada foydalanishni ta’minlaydi.



Ushbu xizmat turi, ayniqsa, so'nggi yillarda butun dunyo bo'ylab taraqqiy etishini kuzatishimiz mumkin, chunki barcha insonlar kundalik turmush hayotlarida bevosita qo'l telefonlaridan foydalanishadi. "Mobilbanking" ilovalarining mukammal ishlab chiqish va ular orqali ko'rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini yaxshilash uchun quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiq bo'lar edi:

- "Mobil banking" ilovalarining (dizayn) ko'rinishini yanada takomillashtirish va soddalashtirish hamda foydalanish jarayonidagi nosozliklarni (server bilan uzilishlar) bartaraf etish hamda "Mobil banking" ilovalaridan foydalanish bo'yicha tushunarli tarzda targ'ibot vositalari, videoroliklarni tayyorlash va uni bankning rasmiy vebsayti hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali keng ommaga yetkazish;
- Mobil bank xizmatlaridan foydalanuvchilarni ishonchli identifikatsiyalash tizimini yanada takomillashtirish va buni masofaviy amalga oshirish, "mobile banking" ilovalari orqali tezkor va sifatli xizmat ko'rsatishni tashkil etish maqsadida ilovalar orqali qabul qilingan axborotlarni tahlil qilishda sun'iy intellekt hamda raqamlili texnologiyalardan keng foydalanish;
- "Mobil banking" ilovalari orqali masofadan olinadigan mikroqarz, mikrokredit va overdraft kabilarni amalga oshirishning tartib-taomillarini belgilab beruvchi yo'riqnomalarni ishlab chiqish;
- masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatishda axborot xavfsizligini ta'minlash va bu borada xalqaro tajribalarni o'rganish orqali axborot xavfsizligini ta'minlashning yangi innovatsion shakllarini qo'llash lozim.

Shu o'rinda, banklar tomonidan mijozlarga ko'rsatiladigan xizmatlar faoliyati samaradorligini yanada oshirish, raqobatda ustunlikka erishish uchun zamonaviy marketing tamoyillaridan maqsadli foydalanish talab etiladi. Xizmat ko'rsatish sohasining muhim bo'g'inlaridan biri sanalgan bank faoliyatida yangi mijozlarni jaib etish hamda mavjudlari ishonchini mustahkamlash jarayoniga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Umuman olganda, mijozlar biznesida quyidagi 4 ta muhim vazifa amal qiladi: mijozni jaib etish, uning ishonchini mustahkamlash, rivojlantirish va keraksiz (foyda keltirmaydigan) mijozlardan voz kechish. Ushbu tizimda mijozlarni jaib etish birinchi o'rinda turishi bejiz emas.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytganda, so'nggi yillarda mamlakatimiz bank tizimida muayyan ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Xususan, bank mijozlariga masofadan turib xizmat ko'rsatish tizimi takomillashtib, bank va mijoz o'rtaсидаги aloqalar mustahkamlanib bormoqda. Bugungi kunda, mijozlar uchun masofadan xizmat ko'rsatishning hamda lizing va faktoring kabi xizmatlarning yangi turlari, mikromoliyaviy xizmatlar, hisob-kitoblarni amalga oshirishda akkreditiv to'lov hujjalari, plastik kartochkalar, shuningdek, elektron to'lovlarning yangi turlaridan foydalanilmoxda.

Ilmiy yangiligi: Tijorat banklari ustav kapitalining 15 foiz ulushini xorijiy investorlarga sotish orqali tashqaridan zamonaviy korporativ boshqaruva va masofaviy bank xizmatlari amaliyotini joriy etish taklif etilgan, onlayn muddatli omonat va onlayn jamg'arma depozitlarni joriy etish taklif etilgan holda jamg'arma depozit hajmini 10,2 foizgacha oshirish asoslangan, onlayn kreditlar berishda depozit va kreditlarning muddatiga mos ravishda differensiatsiya asosida foiz belgilash amaliyotini qo'llash orqali banklarning onlayn kredit xizmatlari jozibadorligini oshirish asoslangan, onlayn muddatli va jamg'arma depozitining ulushini oshirish orqali bankning barqaror resurslari hajmini ko'paytirish va onlayn kredit xizmatlari ko'lagini oshirishning 2025-yilgacha prognozi ishlab chiqilgan.

## XULOSA VA NATIJA

Mamlakatda tijorat banklarining faoliyatini tartibga solishni takomillashtirish uchun quyidagi tadbirlarni oshirish lozim:

Banklar tomonidan mijozlarga erkinliklar yaratish va ularga o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishga o'tish tamoyili asosida keng ko'lAMDAGI masofaviy xizmat turlari taklif qilinmoqda. Xizmat ko'rsatishni elektronlashtirish, ularni unifikatsiyalash va mobilligini oshirish davr talabiga aylanib bormoqda. Mijozlarga masofadan xizmat ko'rsatishning takomillashtib borishi bank xizmatlari ichida mijozga telefon, modem va kompyuter yordamida bank operatsiyalarini o'tkazishga imkon beradi va bank xizmatlari tannarxini pasaytiradi, operatsiyalar tezligini oshiradi. Bunday zamonaviy xizmat turlari jahoning istalgan joyida bank hisob-kitoblarini o'tkazishga imkon beradi.

Masofaviy bank xizmatlarini takomillashtirishda mijozlarning fikrlari hamda ularning moliyaviy savodxonligi asosiy masalalardan ekanligini inobatga olgan holda, mijozlar uchun qulay hamda ularga tushunarli bo'lgan yangi masofaviy xizmat turlarini amaliyotga joriy etish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqildi.

**Tavsiyalar:** tijorat banklari masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning huquqiy-institutsional asoslarini takomillashtirish hamda isloh etishga bag'ishlangan qonunosti hujjalarni ishlab chiqish, tijorat banklari masofaviy bank xizmatlarini tashkil etishda raqamlili bank, online bank xizmati tizimini shakllantirish orqali banklarning innovatsion faollikni oshirishga qaratilgan davlatning maqsadli dasturlarini ishlab chiqishda foydalanishi bilan izohlanadi.

**Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. 2019-yilda mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Parlamentga Murojaatnomasi. <https://president.uz/uz/lists/view/2228>
2. Дуглас Х. Банковская политика в области кредитования. – М.: Слово, 1971. – 508 с.
3. Дерек Ф. Глобальная стратегия банков. – М.: Экономика и финансы, 1990. – 385 с.
4. Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – Москва: Альпина Бизнес Букс, 2007. – 1018 с.
5. Бычкова И. И. Технологические инновации в продаже банковских продуктов / И. И. Бычкова, О. Г. Семенюта // Современные технологии управления. – 2016. – №3 (63). – С. 55-62.
6. Лаврушин О. И. Деньги, кредит, банки: Учебник / Под ред. засл. деят. науки РФ, д-ра экон. наук, проф. О. И. Лаврушина. -М.: КНОРУС, 2016.- 576 с.
7. Банковское дело / Под ред. О. И. Лаврушина. М: Финансы и статистика, 2011. 454 с.
8. Тавасиев А. М., Т. Ю. Мазуринова, В. Б. Бычков.Банковское кредитование.М.:ИНФРА-М. 2012.507 с.
9. Жарковская Е. П. Банковское дело.М.: ОМЕГА-Л. 2014. 413 с.
10. Гончарук А. С. Институциональные аспекты развития сегмента розничных банковских услуг: дис. канд. экон. наук: 08.00.10 / Сев.-Осет. гос. ун-т им. К. Л. Хета-гурова – Шахты, 2012. –183 с.
11. Abdullayeva Sh. Z.. Bank ishi. T.: "IQTISOD-MOLIYA" 2017. 535-536 bb.
12. Mamadiyarov Z. T. Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish. Iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.T.: 2019. 56 b.
13. Xudayarova X. A. O'zbekistonda chakana bank xizmatlari amaliyotini takomillashtirish. Iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.T.: 2020. 63 b.
14. Rahimov A. Mijozlarning bank xizmatlaridan mammunlik darajasini oshirish masalalari. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy jurnali. №2, aprel, 2021-yil. ISSN: 2181-1016.
15. cbu.uz.- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti
16. cbu.uz.- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti
17. O. Sattarov, M. Tangishov "Internet-banking". –Monografiya.:Toshkent 2014-y.

# Yashi

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2023. № 11-12**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

#### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

